

## MAKTABLAR YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGNING ROLI

*Kenjebayeva Dolaris Berdimuratovna*

*Nukus tumani 20-sonli maktab psixologi.*

*Temurbekov Nigmatulla Urazimbetovich*

*Nukus tumani 8-sonli maktabi psixologi.*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada maktabning yuqori sinf o'quvchilarini darslarga, fanlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishda maktab psixologining o'rni, vazifalari va psixokorreksion usul va metodlari haqida yoritib berilgan. Bundan tashqari o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, fikrlarni va his tuyg'ularini adekvat o'rnatish va bir-birlariga nisbatan samimiy munosabatlarni shakllantirish haqida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** qiziqish, iqtidor, yosh hususiyatlari, samarali harakat, individual xususiyatlar, moslashuvchanlik, teng huquqlilik, umuminsoniy qadryatlar, his-tuyg'ular, agressiv xulq atvor, qat'iyat, irodaviy sifatlar.

Davlatimiz olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi kelajak uchun mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash bugungi kundagi zamonaviy o'qituvchida yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlardan o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarni oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayoning samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plagan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari

asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega bo'lgan keng ko'lamli serqirra tushunchadir.

**Asosiy qism** Psixologiyada o'smirlik yoshining xarakteristikasi haqida gap yutilganda asosan gap shaxsning axloqiy taraqqiyoti va axloqiy xarakteristikasi haqida boradi. Bu sohadagi tadqiqotlar ancha salmoqlidir. O'smirlik yoshida bilish jarayonlarining taraqqiyoti va aqliy taraqqiyotga bag'ishlangan psixologik tadqiqotlar hali bizda yetarli emas. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, o'smirlarning psixik taraqqiyotida axloqiy sohadagi o'zgarishlar haqiqatdan asosiy va hal qiluvchi siljish hisoblanadi. Shuning uchun psixologlarning diqqat-e'tiborlari xuddi ana shu masalaga qaratilgandir. O'smirlik yoshiga o'tish o'quvchilarning o'qish faoliyatidagi muhim qayta o'zgarishlar bilan bog'liqdir. O'qish faoliyatining yangi va yuqoriroq bosqichi uning mustaqillik darajasi bilan belgilanadi. O'smirlik yoshining dastlabki davrida o'qish faoliyati taraqqiyotning bosqichlarida juda katta har xillikni ko'rish mumkin. O'smirlar o'zini tuta bilishning o'zligini darslarda topshiriqlarni tez-tez aytib berish hodisasi bilan tushuntirish mumkin. Darslarni aytib berish motivlari juda har xildir. O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ular o'z taqdirlari uchun havsirashadi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha o'smirlarning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatlarining tarkib topishida o'quv materialining g'oyaviy-ilmiy mazmuni, uning hayoti va amaliyot bilan bog'liqligini ifoda etishning muammoli va hissiy harakterga ega bo'lishi hamda o'quvchilarga mustaqil kashfiyot quvonchini berish imkonini bag'ishlaydigan, ularni qidirib bilib olish faoliyatlarini tashkil qilish juda muhim rol o'ynaydi. O'smirlarning qiziqishlari faqat anchagina keng va turli –tuman bo'lib qolmay, balki ancha chuqur va mazmundor ham bo'ladi. Katta yoshdagi o'smir o'zi qiziqqan narsalarni etarli darajada yaxshi biladi. U bir odamning organlarini boshqa odamga ko'chirib o'tkazish hollariga shunchaki qiziqibgina qolmay, balki uning tarixiga ham qiziqadi. O'smirning qiziqishlarini o'sishi ularning kuchi bilan xarakterlanadi. O'smirning qiziqishlari kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqishlariga qaraganda yetarlicha barqaror bo'ladi. Ko'pincha biz o'smirlik yoshida yuzaga kelgan qiziqishning yetuklik yoshida ham saqlanib qolganini ko'ramiz. Bu qiziqishning mazmuni chuqurlashib va boyib boradi, keyinchalik esa asosiy kasb yo'nalishiga aylanib qoladi. Shuni nazarda tutish lozimki, o'smirlik yoshida zararli berilish va qiziqishlar ham bo'lishi mumkin. Ulardan nisbatan zararli berilishlar va qiziqishlar ham bo'lishi mumkin. Ulardan nisbatan zararsizlari televizorlarni pala-partish ko'rishi, uncha badiiy bo'lmagan adabiyotlarni o'qishi shular jumlasidandir. O'smirlik yoshini oxiriga kelganda muayyan kasbga bo'lgan qiziqishlar tarkib topa boshlaganini ko'ramiz. Bu o'smirlardan ba'zilariga bilim yurtlarida o'qish bilan mustaqil ishni elementar darajada tashkil qila olmaydigan, nihoyatda past, quyi bosqichdan boshlab, mustaqil ishlar faqat uy vazifalarini bajarishda kuzatiladigan qator bilimlarning yangi sohalarini kuzatish mumkin. O'qish faoliyati xarakteri va

faoliyatining o'zgarishi, aqlning ortib borayotgan sinchkovligi o'smirdan aqliy faoliyatning ancha yuqori va uyushgan bo'lishini talab etadi. O'smir narsa va hodisalarni murakkabroq sintetik tarzda idrok qilishga qodir bo'la boradi. Unda idrokning ko'lami ortib borib, muntazam, izchil, har tamonlamali idrokka aylanadi. Garchi ko'p narsa o'smirning idrok qilayotgan ob'ektga bo'lgan munosabatiga bog'liq bolsada, u hodisalarning sirtida bo'lgan narsalarning o'zinigina idrok qila olmaydi. O'smirlik yoshida xotira va diqqatda ham muhim o'zgarishlar yuz beradi. Unda belgilangan vazifalarni bajarishni ixtiyoriy tomonlarini kuchayishi bilan xarakterlanadi. Agar oilada ota-ona bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantira olsa, muloqotga mehribonlik, g'amxo'rlikni kiritsa, shu asosida unda samimiy munosabatlar tizimi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Shuning uchun psixolog iloji boricha ota-onalar bilan psixoterapevtik ishlarni olib borishi kerak. Xulq-atvorida o'zgarishlar kuzatilgan bolalar bilan ishlash jarayoni o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Yuqori sinf o'quvchilari bilan ishlashda qo'llaniladigan usul – hozirgi kunda eng ommalashgan psixoterapevtik ishlarning guruhiiy usulidir.

Boladagi bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ya'ni korreksiya qilishda, uning sabablarini, kelib chiqishini aniqlashdan boshlash lozim. Korreksion uslub har bir bolaga alohida yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Korreksion ishlar faqat bola bilan emas, balki parallel ravishda ota-onalar va o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Farzandlar har doim uni yaxshi ko'rishlarini sezishi va tushunishi lozim. U ota-onasiga kerakligini his qilishi darkor. Biz quyida o'quvchilar bilan olib boriladigan psixokorreksion mashg'ulotlar va interaktiv metodlarni misol qilib keltiramiz:

### **“Yumshoq qo'lchalar”**

**O'yinning maqsadi:** qo'l mushaklaridagi taranglikni yo'qotish. Bolalarni tushkun holatdan chiqarishga yordam berish, idrokni rivojlantirish, o'qituvchi va bolalarga o'quvchilar o'rtasida munosabatlarni mustahkamlash.

**Kerakli jihozlar:** 6-7 ta mayda buyumlar: shisha flakon, munchoq, cho'tkacha.

**O'yinning borishi:** Trener 6-7 ta mayda buyumlarni oladi: shisha flakon, munchoq, cho'tkacha, paxta va h.k. Ularning hammasini stolga qo'yadi. Bolalarga yengini tirsagigacha shimarish taklif etiladi; Trener ularning qo'lidan “jonivorlar” yurib, yumshoq qo'lchalari bilan tegib o'tishlarini aytadi. Ularning ko'zlari yumuq holda qaysi “jonivorlar” qo'llariga tegib o'tganini topishlari lozim. O'yin variantlari: “jonivorlar” bolalarning kaftga, yuzlariga, tizzalariga tegib o'tishi mumkin.

### **“Ayiqchaga ezgu so'zlarni ayt”**

**O'yinning maqsadi:** o'quvchilarda o'z-o'zini baholashni oshirishga yordam berish, bir-birlariga maqtov so'zlarini izhor qilishga, e'tiborli bo'lishga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** koptok, o'yinchoq ayiqcha.

**O'yinning borishi:** Trener va bolalar doira shaklida o'tiradilar, Trenerning qo'lida koptok bo'ladi. Trener va bolalar koptokni bir-birlariga uzatib, odamlarda qanday yaxshi xususiyatlar bo'lishini esga olishadi. So'ngra Trener o'yinga o'yinchoq ayiqchani taklif etadi. Bolalar unga quyidagi so'zlarni aytishadi: "Sen – ... (yaxshisan, quvnoqsan, tirishqoqsan)". So'ngra navbati bilan har bir bola "ayiqchaga aylanishadi" (o'yinchoqni qo'lda ushlab turadi), qolgan bolalar ayiqcha rolidagi bolaga ezgu so'zlarni aytadilar. O'yin shu tarzda davom etadi.

Bunday korreksion o'yinlarni bir nechtasini misol qilib keltirish mumkin. o'quvchilardagi bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda pedagoglarning vazifalari: o'zining negativ hissiyotlarini nazorat qilishlari; bolaning o'z his-tuyg'ulari, kechinmalari haqida suhbatlashish; o'quvchining "ichki dunyosiga" quloq solish; bola shaxsini baholamaslik, shunchaki salbiy xatti-harakatlarining oqibatlarini tushuntirish. Mana yuqoridagi bayon qilingan hamma fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki bir xil tashqi sharoit, bir xil muhit, turli bolalarga o'smirlarga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maktab o'quvchisining psixik taraqqiyoti qonunlari shuning uchun ham murakkabki, psixik taraqqiyotining o'zi murakkab va qarama –qarshi o'zgarishlardan iborat usulidir. Ta'lim –tarbiya sharoitlari xilma-xil va ko'p qirralidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Slovar`, Psixologiya, Siyosiy adabiyot nashriyoti - Moskva, 1990 yil
2. Entsiklopediya. Umumiy va ijtimoiy psixologiya, M.I.Enikeev, PRIOR nashriyoti - Moskva, 2002.
3. Umumiy psixologiya, A.V.Petrovskiy, "O'qituvchi nashriyoti" – Toshkent, 1975.
4. V. Noskov, Rivojlanish psixologiyasi va yosh davr psixologiyasi, Vladivostok, 2003.
5. Sh.A.Do'stmuxammedova "O'quvchilarda o'quv faoliyatini boshqarish psixologiyasi" -Toshkent 2000-yil
6. J.G.Yuldoshev Ta'lim yangilanish yo'lida. Toshkent 2000-yil .